XALQ DEPUTATLARI DEHQONOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 21-iyun VI-63-70-4-57-K/24 Dehqonobod tumani

Dehqonobod tuman mahalliy budjetining 2024-yil moliya yili mobaynidagi xarajatlar qismiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 27- va 148-moddalariga asosan, tuman maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limining 2024-yil 22-may kunidagi 7-son xatini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-yanvardagi “Olis hududlardagi budjet tashkilotlarga malakali mutaxassislarni jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4940 sonli, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi “Olis hududlarda joylashgan umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritadigan pedagog xodimlarning mehnatini yanada rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi 471-son qarorlari asosida Dehqonobod tumanining olis hududlarida joylashgan 16-44-91-umumiy o‘rta ta‘lim maktablariga kelgan oliy ma‘lumotli mutaxassislarga belgilangan imtiyozda, ya‘ni bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida bir martalik boshlang‘ich yordam puli va uy-joylarni ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida bir oylik pul kompensatsiyasini to‘lash uchun mablag‘ ajratish maqsadida tuman mahalliy budjetining 2024-yil moliya yili mobaynidagi xarajatlar qismiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i F.Nurmatovning taqdim etgan hisobotini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6- va 24-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Dehqonobod tumanining olis hududlarida joylashgan 16-44-91-umumiy o‘rta ta‘lim maktablariga kelgan oliy ma‘lumotli mutaxassislarga belgilangan imtiyozda, ya‘ni bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida bir martalik boshlang‘ich yordam puli va uy-joylarni ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida bir oylik pul kompensatsiyasini to‘lash uchun tuman mahalliy budjetining 2024-yil moliya yili mobaynidagi xarajatlar qismiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish ilovaga muvofiq ma‘qullansin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (F.Nurmatov)ga;

O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi talablariga asosan tuman mahalliy budjetining 2024-yil moliya yili mobaynidagi xarajatlar qismiga belgilangan tartibda mazkur qarorning ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan o‘zgartirishlarni kiritish topshirilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Kengashning “Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari” bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Usmonov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



BAYNAZAROVA
NODIRA TANGIROVNA

Xalq deputatlari Dehqonobod tumani Kengashining
2024-yil 21-iyundagi
VI-63-70-4-57-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Dehqonobod tuman mahalliy budjetining 2024-yil moliya yili mobaynidagi xarajatlar qismiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

(ming so‘m)

Tashkilot nomi	Bo‘lim	Kichik bo‘lim	Bob	Xarajatlar moddasi	O‘zgarish summasi - jami		Shu jumladan, choraklar bo‘yicha (Ko‘paygan+ Kamaygan-)															
					Ko‘payish summasi	Kamayish summasi	**I chorak**	shundan			**II chorak**	shundan			**III chorak**	shundan			**IV chorak**	shundan		
								yanvar	fevral	mart		aprel	may	iyun		iyul	avgust	sentabr		oktabr	noyabr	dekabr
a	1	2	3	4	8	10	**11**	12	13	14	**15**	16	17	18	**19**	20	21	22	**23**	24	25	26
Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo‘limi (xalq ta'limi sohasi)	**7092**	**100**	**72**	**4821190**	**51 000,0**	**0,0**	0				**51 000,0**			51 000,0	**0,0**				**0,0**			
Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo‘limi (maktabgacha ta'lim sohasi)	**7091**	**100**	**72**	**4252110**	**0,0**	**-51 000,0**	0				**-51 000,0**			-51 000,0	**0,0**				**0,0**			
HAMMASI					**51 000,0**	**-51 000,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**